



BADIIY MATNDA UCHROVCHI JUFT SO‘ZLARNING LEKSIK - SEMANTIK TAHLILI

Mamarasulova Iroda

O‘zbekiston - Finlandiya pedagogika instituti

Filologiya fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi

1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Erbutayeva Sh.U

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishimizda juft so‘zlarning badiiy matndagi leksik-semantik tahlili keltirilgan bo‘lib, biz juft so‘zlarning ma’no anglatmaydigan qismi mavjud degan fikrning qanchalik to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligi haqidagi fikrlarimizni keltirganmiz.

Kalit so‘zlar: badiiy matn, juft so‘zlar: qari-qartang, ko‘cha-ko‘y, qon-qardosh, el-yurt, urug‘-aymoqsiz, choy-chaqa, rizq-ro‘z, qo‘yin-qo‘nj kabilar.

Bizga ma’lumki, juft so‘zlar, so‘zlarning tuzilishiga ko‘ra turlaridan biri hisoblanadi. Biz o‘rgangan manbalarda juft so‘zlarning bir necha guruhlari keltirilgan bo‘lib, ular quyidagilar: 1) ikkala qismi ma’no anglatadigan; 2) ikkinchi qismi ma’no anglatmaydigan; 3) ikkala qismi ma’no anglatmaydigan kabilar. Shu asosda biz badiiy matn tarkibida kelgan quyidagi juft so‘zlarni tahlilga tortdik, bunda bizga O‘zbek tilining izohli lug‘ati va etimologik lug‘at yordam berdi.

M: U tinmay ishladi **qari-qartangdan**

Tolmadi necha kun hikoya tinglab

Bu she’riy misradagi qari-qartang juft so‘zi turli yoshdagi qariyalar, chollar, qari-quri odamlar ma’nosida ishlatilgan. Agar ularni alohida holda tahlil qilsak, yana boshqa ma’nolari kelib chiqadi. Qari so‘zi omonim so‘z bo‘lib, 1) ancha yoshga borgan, qartaygan, keksa; 2) Xivada 145 smga teng uzunlik o‘lchovi kabi ma’nolari ham mavjud. Qartang so‘zi eski turkiy so‘z bo‘lib, qartaygan odam, qari kishi kabi ma’nolarni bildiradi. Hozirgi kunda ayrim holatlarda ishlatiladi.

M: Kecha va bugunni birdayin quchib

Tongga yurar uyg‘oq Buxoro tuni

Mashinalar **ko‘cha-ko‘ylaring** yuvib

Kunduzga kelinday uzatar uni



Bu she'riy misrada shoira ko'cha-ko'y juft so'zini ko'cha va umuman uy-hovlidan tashqari bo'lgan joylar ma'nosini nazarda tutib qo'llagan. Aslida esa biz **ko'cha** so'zini yolg'iz holda tahlil qilsak, u aholi yashaydigan joylarda yo'lovchilar o'tib turadigan, transport qatnaydigan yo'l ma'nosidagi so'z hisoblanadi. Ko'y so'zi esa eski turkiy so'z bo'lib, u shakldoshlik xususiyatiga ega bo'lib, u she'rda ko'cha, yo'l ma'nosida ishlatilgan. Shuningdek, u biror narsa dardi, savdosi, harakati kabi ma'nolarni ham bildiradi. Ushbu misolda umumlashma harakterida ishlatilgan.

M: Ertamiz na xayol, na ro'yo

Bugundan ko'rkam u

Qon- qardosh ellarning do'stligi qurgusi.

She'riy misradagi qon-qardosh juft so'zi bir ota-onadan tug'ilgan, bir avlodga mansub kishilar (bir-biriga nisbatan), qarindosh, qondosh kabi ma'nosini ifodalash uchun ishlatilgan. Agar biz ularni alohida holda tahlil qilsak, boshqa ma'nolari ham kelib chiqadi. Qon so'zi shakldosh so'z bo'lib, 1) Tirik organizmda yurak faoliyati tufayli aylanib yurib hamma organ va hujayralarni oziqlantiradigan, modda almashinishini ta'minlaydigan qizil suyuqlik; 2) Ko'chma ma'noda qattiq siqilmoq, xun bo'lmoq; 3) Ko'chma ma'noda intiqom, o'ch kabi ma'nolarni bildiradi. Qardosh so'zi ko'p ma'noli so'z bo'lib, 1) Do'stlik, birodarlik aloqalari bilan bog'langan, bir-biriga juda yaqin, do'st, birodar; 2) Qarindosh, qarindosh-urug'; 3) O'ziga teng kishiga murojaat formasi, oshna, og'ayni, birodar, o'rtoq kabi ma'nolari mavjud. Yuqoridagi misrada ko'chma ma'noda "Do'stlik, birodarlik aloqalari bilan bog'langan, bir-biriga juda yaqin, do'st, birodar" ishlatilgan.

M: Yashab yurishi mumkin qo'l, oyog'-u barmoqsiz

Ammo yashay olmaydi el-yurt, **urug'-aymoqsiz**

She'riy misradagi urug'-aymoq juft so'zi qarindoshlik munosabati bilan o'zaro bog'langan va bir joyda yashaydigan kishilar, qarindosh-urug' ma'nosida qo'llangan. Agar biz juft so'zlarni alohida qilib tahlil qilsak, ular boshqa ma'nolarini ham bildiradi. Urug' so'zi shakldoshlik xususiyatiga ega so'z bo'lib, u 1) O'simlikning murtak, oziq moddalari va qobiqdan iborat hosila, don; 2) Erkaklar jinsiy bezi ishlab chiqaradigan, jinsiy hujayralardan iborat suyuqlik; 3) Ipak qurti kapalagining tuxumi; 4) Bir ajdoddan kelib chiqqan kishilar, avlod, qarindosh kabi ma'nolari mavjud. Aymoq so'zi ham shakldoshlik xususiyatiga ega bo'lib, u 1.urug', elat ; 2.eski turkiy tilda aytmoq, demoq kabi ma'nolarda ishlatilgan bo'lib, urug'-aymoq juft so'zi bir ajdoddan kelib chiqqan kishilar, elat ma'nolarini ifodalayapti.

M: Nima endi, bu qorong'ulik

Gurunglashib turibmiz, mana



Qo'y-qo'zilar, qo'ni-qo'shnilar
 Sharpasidan bardammiz-ku a ?

She'riy misradagi qo'ni-qo'shni juft so'zini yaqin atrofda yashovchi kishilar, qo'shnilar (bir-biriga nisbatan) ma'nosini nazarda tutib qo'llangan. Bu juft otning birinchi qismi ma'lum bir sathdan joy ol ma'nosini anglatuvchi qo'n fe'lidan -i qo'shimchasi bilan yasalgan, keyinchalik -i unlisining qattqlik belgisi yo'qolgan ; qo'n+i=qo'ni. Bu so'z yolg'iz o'zi ishlatilmaydi, qo'ni-qo'shni juft so'zi tarkibida keladi. Qo'shni so'zi yashash joyi yonma yon kishilar (bir-biriga nisbatan). Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan bu ot asli ma' lum sathdan joy ol ma'nosini anglatuvchi qo'n fe'lidan -chi qo'shimchasi bilan yasalgan, keyinchalik ch undoshi sh undoshiga almashgan, so'ngra nsh undoshlari o'rin almashgan. Mahmud Qoshg'ariy qadimgi turkiy tilda bu so'zning qo'shni shakli ham, qo'nshi shakli ham qoidaga mos va to'g'ri deb ta'kidlaydi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida bu juft so'zimiz birinchi qismi ma'no anglatmaydigan juft so'zlar qatoriga kiradi. demak, shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, hozirda ma'no anglatmaydigan so'zlar, tarixan ma'no anglatgan va bugungi kunda uning asl denotativ ma'nosi yo'qolgan.

Erim, bola-chaqam deb yashab
 Goh baxtlisiz, gohi g'urbatda

Bu she'riy misrada shoira bola-chaqa juft so'zini katta-kichik bolalar, bola-baqra, oila a'zolari (xotin va bolalar) ma' nosini nazarda tutib qo'llagan. Aslida bu juft so'z qismlarini alohida tahlil qilsak, ular turli xil ma'nolarni bildiradi. Bola so'zi ko'p ma'noli so'z bo'lib, 1.yangi tug'ilgan, hali ko'krakdan, ona bag'ridan ajratilmagan go'dak, chaqaloq; 2.farzand, o'g'il-qiz, zurriyot ; 3.ko'chma ma'noda yoshi ulg'aygan, ammo go'daklarcha ish tutadigan, bolalarcha mulohaza yurgizadigan odamga nisbatan; 4.yangi tug'ilgan tuxumdan chiqqan, hali voyaga yetmagan yosh hayvon yoki parranda; 5.bir turdagi katta-kichik narsalarning kichigi, kichkinasi kabi ma'nolari mavjud. Chaqa so'zi shakldoshlik xususiyatiga ega bo'lib, u 1.bola, farzand; 2.kichik yara, jarohat, biron bir zarb, ta'sir natijasida narsalarning yuzasida hosil bo'lgan o'yi; 3. asosan mis, jez singari metallardan yasalgan, qiymati past mayda, tanga pul, umuman pul, eski turkiy tilda bir tiyin kabi ma'nolarni bildiradi. Ushbu ma'lumotdan anglashiladiki, bola va chaqa so'zlari umumiy farzand ma'nosida qo'llaniladi. Endi quyidagi misolga diqqatimizni qaratamiz.

M: O'chma ko'p ham choy-chaqalarga
 Kun qolmasin ko'r baqalarga



Bu she'riy misradagi choy-chaqa juft so'zi ko'p ma'noli so'z bo'lib, bu misrada mayda ko'cha xarajatlari uchun mo'ljallangan oz miqdordagi pul, choy puli ma'nosida ishlatilgan. Ularni alohida ajratib tahlil qilsak, choy so'zi ko'p ma'noli so'z bo'lib, 1.bargni damlab ichiladigan Janubiy o'lkalarda o'suvchi doimiy yashil buta daraxti, buta; 2.shu o'simlikning quritib maxsus ishlangan, maydalangan, damlab ichiladigan barglari; 3.shu o'simlikning maxsus ishlangan barglaridan damlangan xushbo'y ichimlik kabi ma'nolari mavjud. Chaqa so'zi shakldoshlik xususiyatiga ega bo'lib, u 1.bola, farzand; 2.kichik yara, jarohat, biron bir zarb, ta'sir natijasida narsalarning yuzasida hosil bo'lgan o'yi; 3.asosan mis, jez singari metallardan yasalgan qiymati past mayda tanga pul, umuman pul, eski turkiy tilda bir tiyin kabi ma'nolarni bildiradi. Chaqa so'zining uchinchi ma'nosi bizga tanish, lekin yuqorida keltirilgan ma'nosi esa ancha mavhumroq edi.

M: Yo bergani uchunmi rizq-ro'z

Zaytunni ham, xurmo, nonni ham

Bu she'riy misradagi rizq-ro'z juft oti asli yashash uchun zarur narsalar ma'nosini anglatadigan arabcha rizq oti bilan kun ma'nosini anglatadigan tojikcha ro'z otidan tuzilgan rizq-u ro'z izofa birikmasiga teng bo'lib, o'zbek tiliga izofani tashlab, birikma qismlarini chiziqcha bilan yarim qo'shib yozib olingan, kundalik tirikchilik uchun zarur ozuqalar ma'nosini anglatadi. Rizq so'zi nasiba, kundalik hayot uchun zarur ozuqa, ovqat, yashash vositasi kabi ma'nolarni bildiradi. Ro'z so'zini kun, bir kun kabi ma'nosi mavjud. O'zlashma so'zlarning juftlashishi she'rga o'zgacha ohor bergan deyishimiz mumkin.

Bilmaymiz

Qo'yning-u qo'njingda

Na siyoq tuhfarlar bo'lajak

Kim umrin eng sinchkov mezon-tarozu

Pallasin qay biri ne siyoq tolajak

Bu she'riy misradagi qo'yin-qo'nj juft so'zini shoir quchoq, bag'ir, pinj, ko'ksi kabi ma'nolarni ifodalash uchun foydalangan. Agar ularni alohida qilib tahlil qilsak, ularning boshqa ma'nolari ham kelib chiqadi. Qo'yin so'zi izohli lug'atda 1.ko'krak va uni yopib turgan kiyim orasidagi joy ; 2.ko'chma ma'noda quchoq, o'g'ush kabi ma'nolari berilgan. Qo'nj so'zi shakldoshlik xususiyatiga ega bo'lib, u eski turkiy tilda pinj, bag'ir, quchoq ; 2.etik, mahsi, piyma, oyoq kiyimlarning boldirni, ilikni o'rab turadigan yuqori qismi kabi ma'nolari mavjud. Demak, bu misolimizda ham ma'nodosh so'zlar juftlashgan va musiqiylikni hosil qilgan.



Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, juft so‘zlar tarixan alohida ma’no anglatuvchi so‘zlardan ham tashkil topgan, davrlar o‘tishi bilan uning ma’nolari mavhlashgan va yaxlit holga kelib qolgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, - Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, 2006-2008, 1 tom.
2. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (1-2 jildlar).- Toshkent: Universitet. 2000,-B. 190.
3. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.- Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013.
4. Bilimlar.uz
<https://bilimlar.uz>>she’rlar.
5. ziyo uz.com
<https://n.ziyo.uz.com>> o‘zbek she’riyati.